

**NAVOIY ASARLARIDA QIZIL VA QORA RANGLAR SIMVOLIKASI
XUSUSIDAGI ILMIY QARASHLAR**

Xudoyberdiyeva Nigora Sherali qizi

n.hudoyberdieva@uzswlu.uz

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola Alisher Navoiy ijodida muhim ahamiyat kasb etgan qizil va qora ranglar, ularning simvolikasi, shoir ijodida qanday ramziy ma'nolarda qo'llanilganligi, ranglarning shoir ijodida salbiy, ijobiy va neytral ma'nolar ifodalashi kabi masalalar yuzasidan ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Rang simvolikasi, kolorativ leksema, ijobiy bo'yoqdorlik, salbiy bo'yoqdorlik, anbar, mushk, tiyra va g'oliya.

A.Navoiy ijodida rang simvolikasi orqali turli g'oyalarni ifodalash yetakchi o'rinda turadi, ayniqsa qora, qizil ranglar simvolikasi shoir ijodida muhim ahamiyatga ega. Shoir bu ranglardan ijobiy va salbiy ma'no ifodalash uchun foydalangan. A.Navoiy asarlarida qo'llangan "Ro'zgorimdek ham o'lg'anda qorang'u kelmadi" kabi misralar qora rangning salbiy ma'no jihatlarini namoyon qilgan bo'lsa, qaro ko'zim va ko'zim qarosi kabi iboralar esa ijobiy bo'yoqdorlikni ifodalashga xizmat qilgan.

"Alisher Navoiy g'azallari – go'zallik mulkining mangu so'lmas chechaklaridir. Ularda ishq bor, dard bor, farah bor... Beorom, otashin qalbning buyuk talpinishlari, yuksak, oliyjanob ruhning betakror suvratlari, manzaralari... Ma'no va tafakkur, xayol va tasavvurning avj pardalari, uchqur parvozlari, so'ngsiz jilvalari, demakdir... Ularni baholash, talqin etish uchun biz, faqirlarga Navoiy yetukligi darajasiga ko'tarilish yo'l bo'lsin, lekin, harholda hazratning ma'naviy dunyosiga yaqinlashish, uning kamoliga ergashish shart. Shu ma'noda Navoiy ijodi buyuk bir ko'zgudirkim, har kimsa unga ko'z solib, unda ko'zi ilg'aganicha ko'rar, u bir xazinadirkim, har kishi unga qo'l cho'zib, undan qurbi yetganicha olar..." deb

ta'kidlaydi navoiyshunos olim Jamol Kamol. Darhaqiqat, shoirning ulkan ma'naviy merosini to'la anglash, tahlil etish oson emas. Biroq, biz A.Navoiyning bir nechta ijod namunalari misolida ranglar tahlili to'g'risida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tishni joiz deb topdik.

Shoir bir g'azalida oshiq Allohning go'zalligi oldida oh chekishi va ohining tutunidan dashtda qizil, sariq, yashil ranglarda shamol esishi, yor (Alloh) ning orazi go'zalligidan shoirning ko'ziga dunyo go'zal qiyofada ya'ni, qizil, sariq, yashil rangda ko'rinishi, o'zini yor ishqida faqir va bechora sanashi, faqir ahli esa doim qizil, sariq va yashil yamoqli kiyim kiyishi, devonini bezash uchun shoirga zangori, oltinrangning shart emasligi, chunki A.Navoiyning nazmi shu holatda ham qizil, sariq, yashil rangda ekanligini yozadi. A.Navoiy kolorativ leksemalarni qo'llash orqali turli ramziy ma'nolarni, rangning semantik xususiyatlarini ochib bergan. Shoir qora rangni aks ettirish uchun anbar, mushk, tiyra va g'oliya kabi turli tushunchalarni qo'llagan. Yuqoridagi tushunchalarning ba'zilar ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lsa, ayrimlari salbiy ma'no kasb etadi. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan misollar ham fikrimizni aynan isbotlaydi:

Tiyra hijrondin chu yo'qtur farq subh-u shomima,

Xoh shom o'lsun qorong'u ro'zgorim, xoh subh.

Bu baytda yana bir favqulodda toza istiora qo'llanilgan: tiyra hijron. Qop-qora ayriliq – bu oshiqning qil sig'magan qalbi, motamzada holati. Hijron tuni, hajr shomi iboralari yonida mazkur istiora tasvirning latifligini oshiradi, rangni quyuqlashtiradi, lirik qahramon kechinmalarining shiddatini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan". Jamol Kamol baytning umumiy mazmuniga to'xtalib o'tgach, baytda ifodalangan ichki, yashirin ma'noni ham ko'rsatib beradi: "Baytning botiniy, ma'rifiy ma'nosi: « Ilohiy yor yodini faromush etib, nafsoniy dunyoga berilib qolganim uchun tong bilan shomning farqi bilinmay qoldi, shom bo'lsa ham, tong otsa ham ko'nglimga hech narsa sig'maydi, chunki qorong'u ro'zgor – dunyo tashvishidan qutulish g'oyat mushkul, u mani o'z domiga zanjirband etgan» . Ya'ni guvohi bo'lganimizdek bu o'rinda shoir tiyra hijron, qorong'u ro'zgor iboralari orqali insoniy his-tuyg'ular emas, balki ilohiy ishqni kuylaydi. Keyingi

baytda qora rangning ramziy ma'nosi yanada kuchayadi:

Dudi ohimdin qororg'ay, hajr shomidin batar,

Bo'lsa hijron qat'ida bir kun manga hamrog' subh.

«Agar tong hijron paytida(avjida) men bilan bir kun birga bo'lsa, ohim tutuni-yu hajrim shiddatidan o'zi ham qora rangga bo'yaladi». Dunyo ishlari, moddiy olam talablariga qarab yuraversang—tongni ham sezmayсан, ilohiy nur ham qorong'ilikni yorib o'tolmaydi,— tarzida talqin qilinadi bayt.

Shoir ijodini tahlil qilish davomida yuqorida keltirilgan misollardan ham boshqa bir qator kolorativ birliklar mavjudligi, ular ham Alisher Navoiy ijodining rangba-rangligi va xilma-xilligini ta'minlashda muhim o'rin tutishining guvohi bo'ldi. Har bir rang simbolikasini o'rganish uchun katta kuch, vaqt va qunt talab qilinadi. Shoir asarlari lug'atida ham bir rangning turli ma'nolarda qo'llanilishi yoki ayni bir rangni ifodalash uchun turli sinonimik qatorlarning uchrashi kuzatildi. Shu nuqtai nazardan shoir ijodi hamisha bahs va munozaralar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.
2. Алишер Навоий: қомусий луғат. Биринчи жилд // Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиiddинов. – Т.: Sharq, 2016. – 536 б.
3. Жамол Камол. Навоий ғазалларига шарҳлар. Қизил, сорик, яшил. – Б. 35–37.